

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2025 № 3-4 (30-31)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2025 № 3-4 (30-31)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” International journal


<p>Tahrir kengashi Abdildina, R.J. - Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor Mamedzade, I.R. - Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor Skarantino, L.M. - Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. - Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya FA prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. - Qozog'iston FA muxbir a'zosi, f.f.d., professor Tsuy Veyxan - Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. - Rossiya FA Falsafa institute professori, f.f.d., (Rossiya)</p> <p>Muassislar: Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti O'z.RV M huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers МЧЖ Elc.uz</p> <p style="text-align: center;">Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.</p>	<p>Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. - f.f.d., professor (O'zbekiston) Bosh muharrir o'rinbosari: Aslanova R. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas'ul muharrir: Muhamedova Z.M. – f.f.d., prof. (O'zbekiston) Tahrir hay'ati: Allahyarova, T., - f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., - s.f.d., professor (Qozog'iston) Abasov, A.S. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Buzarinejad, Y. - PhD, dotsent, Tehron universiteti Alborz fakulteti dekani; (Eron) B.K. Santosh Kukreja, - DS professor (Hindiston) Bilalov, M.L., - f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Kerimov E. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Gezalov, A.A., - f.f.n., professor (Rossiya) Olatunji Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Pardayev S.P. – falsafa doctori PhD, (O'zbekiston) Tulenova G. J - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tesdelen, Vefa, - f.f.d., professor (Turkiya) To'rayev, B.O., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tyukmaeva A.M. – falsafa doctori PhD (O'zbekiston) Kurmangalieva, G. K., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Qurbonova L.A. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Xudoydodzoda F.B., - f.f.d., professor (Tojikiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O'zbekiston) Xudoyberganov R. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Mahmadizoda N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. Hakimoglu - PhD filos., professor (Turkiya) Paxruddinov, Sh.I.- s.f.d., professor (O'zbekiston) Sergeev, M.Y., - professor (AQSH) Sagikizi A.- f.f.d., professor (Qozog'iston) Urmanbetova, J.K., - f.f.d., professor (Qirg'iziston) Chjan Baychun, - f.f.d., professor (Xitoy) Shadmonov, Q., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg'iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa doctori PhD, dotsent (O'zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. (O'zbekiston) Po'latov A. (O'zbekiston)</p>
--	--

MUNDARIJA
SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjanovich	RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIIY ONG DINAMIKASI	9-19
Qosimova Nazira Omurqulovna	GARMONIYA VA HAMKORLIK: DIPLOMATIYANING AYOLLAR O‘LCHOVI	20-30
Rasulov Rustambek Odilovich	AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SIYOSIIY MAFKURALAR TARG‘IBOT METODOLOGIYALARINING O‘ZGARUVCHALIGI	31-37
Shayildayeva Asel Kokoyevna	XALQ DIPLOMATIYASIDA AYOLLAR YETAKCHILIGI: MAS‘ULIYAT VA G‘AMXO‘RLIK FALSAFASI TA‘LIM VA FAN FALSAFASI	38-45
Qurbonova Lolaxon Abduxadimovna	ELITAR TA‘LIM MODELLARIGA SUN‘IY INTELLEKTNING INTELLEKTUAL VA MA‘NAVIY TA‘SIRI	46-53
Xaydarova Aqida Xurramovna	TANLANISH MEXANIZMI VA EPISTEMOLOGIK RATSIOANALLIK DIALEKTIKASI	54-60
Usmonov Muxriddin Abdimuradovich	IDROKNING TAFAKKUR USLUBINING ONTOLOGIK POYDEVORI SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING ONG - BORLIQ O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TUSHUNISHDAGI AHAMIYATI	61-75
Shermuhamedova Niginaxon Arslonovna	SINERGETIK VA DIALEKTIK TAFAKKUR VA ULARNING MURAKKAB TIZIMLARNING RIVOJLANISHINI TUSHUNISHDA ROLI FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI	76-85
Pardayev Sultonmurod	DUNYONING ILMIY MANZARASI EVOLYUTSIYASINING KLASSIK, NOKLASSIK VA POSTNOKLASSIK DAVRLARI VA ULARNING O‘ZARO TA‘SIRI	86-96
Qodirov Javlonbek Abdusattor o‘g‘li	ZAMONAVIIY FALSAFADA ONGGA OID POSTMODERN VA NEYROFALSAFA SOHALARIDAGI QARASHLAR DINAMIKASI	97-104
Sapayev Valisher Odilbek o‘g‘li	SUN‘IY INTELLEKT FENOMENINING IJTIMOIIY JARAYONLAR BILAN BOG‘LIQ JIHLTLARI VA UNING MAFKURAVIIY AHAMIYATI DUNYO MADANIYATI VA DINIIY AN‘ANALAR	105-116
Alaje, Olubunmi Oyebola	FATOU FANNY-CISSÉ‘NING “MADAME LA PRÉSIDENTE” ASARIDA MISTITSIZM, GENDER ASOSIDAGI KUCH VA YETAKCHILIKNING ETNOLINGVISTIK TASVIRI	117-132
Qudratov Siroj Xolmatovich	MILLIIY VA GLOBAL TAJRIBALAR ASOSIDA YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	133-145

**SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI /
ФИЛОСОФИЯ ПОЛИТИКИ И ОБЩЕСТВА /
PHILOSOPHY OF POLITICS AND SOCIETY**

UDK: 316.772:1:004

 10.5281/zenodo.18734178

Inaqov Quadratjon Qadirjanovich

falsafa doktori PhD

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

(Toshkent, O‘zbekiston)

**RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MAFKURA
TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOY ONG DINAMIKASI**

Annotatsiya. Raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy ongning shakllanish mexanizmlari tubdan o‘zgarib, mafkuralarning yaratilishi, tarqalishi va qabul qilinishi yangi kommunikatsion muhitda amalga oshmoqda. Axborot oqimlarining tezkorligi, vizual kontent ustuvorligi va algoritmik boshqaruv mafkuraviy ta‘sirning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu jarayonlar shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy identifikatsiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ushbu maqolada an‘anaviy va raqamli mafkura shakllari o‘rtasidagi farqlar, raqamli mafkuraviy jarayonlarni anglashda tanqidiy tafakkurning ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: Raqamli jamiyat, mafkura transformatsiyasi, ijtimoiy ong, axborot makoni, raqamli kommunikatsiya, tanqidiy tafakkur.

KIRISH

Mafkura insoniyat tarixida jamiyatning ma‘naviy qiyofasini, ijtimoiy ong yo‘nalishini va tarixiy taraqqiyot vektorini belgilab beruvchi muhim falsafiy kategoriya sifatida shakllangan. Antik davrda mafkuraviy tasavvurlar mifologik va kosmologik dunyoqarashlar orqali ifoda etilgan bo‘lsa, O‘rta asrlarda ular diniy-axloqiy tizimlar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘lgan. Yangi davrga kelib esa mafkura ratsional tafakkur, siyosiy g‘oyalar va ijtimoiy loyihalar bilan chambarchas bog‘lanib, jamiyatni idrok etish va boshqarishning nazariy asosiga aylangan. XX asrda ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi mafkuraviy ta‘sirning yangi bosqichini boshlab bergan, chunki ijtimoiy ong faqat ta‘lim yoki an‘anaviy institutlar orqali emas, balki ommaviy axborot makoni orqali shakllangan. Gazeta, radio va televideniya mafkurani tarqatishning markaziy vositalariga aylanib, ijtimoiy tasavvurlar, qadriyatlar va me‘yorlarni standartlashtirishga xizmat qilgan. Bu jarayon mafkuraning institutsionallashuvi va uning ijtimoiy ongga tizimli ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Raqamli jamiyatga o‘tish esa mafkuralarning tarixi va mohiyatida sifat jihatdan yangi o‘zgarishlarni shakllantirgan. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy

tarmoqlar va algoritmik platformalar mafkuraviy g'oyalarni yaratish, tarqatish va qabul qilish jarayonlarini markazlashmagan, dinamik jarayon sifatida rivojlanishiga ta'sir etgan. Shu bois hozirgi davrda ijtimoiy ong faqat tayyor g'oyalarni qabul qiluvchi passiv maydon emas, balki mafkuraviy ma'nolar doimiy ravishda qayta ishlab chiqiladigan faol makon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda raqamli jamiyat sharoitida mafkuralarning transformatsiyasi faqat texnologik o'zgarish emas, balki chuqur falsafiy-tarixiy jarayon sifatida qaralishi lozim. U ijtimoiy ongning strukturasi, bilish usullari, qadriyatlar iyrarxiyasi va shaxsning jamiyatdagi o'rni haqidagi tasavvurlarni qayta shakllantirmoqda. Ushbu maqolada aynan shu tarixiy va falsafiy jarayonlar tahlil qilinib, raqamli davrda mafkuraning ijtimoiy ongga ta'siri kompleks yondashuv asosida yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli jamiyat sharoitida mafkuralarning transformatsiyasi va ularning ijtimoiy ongga ta'sirini tahlil qilishda falsafiy tafakkur tarixida turli nazariy yondashuvlar shakllangan. Masalan, qadimgi jamiyatlarda mafkura mifologik va diniy dunyoqarashlar orqali ifoda etilgan bo'lsa, keyinchalik u ijtimoiy-siyosiy tafakkurning bosh omili sifatida falsafiy tahlil obyektiga aylangan. G'arb falsafiy merosida mafkura ijtimoiy ongning tarixiy shartlangan shakli sifatida talqin qilingan. Masalan, K. Manheym o'z asarlarida mafkurani muayyan ijtimoiy guruh manfaatlari bilan bog'liq dunyoqarash tizimi va bilim ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy aloqadiligini asoslagan [Manheym, 1994, p.56-62]. Uning qarashlarida mafkura ijtimoiy voqelikni anglash va baholash usuli sifatida namoyon bo'lib, ijtimoiy ongning dinamikasini belgilab beruvchi omil sifatida talqin qilingan. M. Kastels raqamli jamiyatni tarmoqli tuzilma sifatida ta'riflab, mafkuraviy ta'sir endilikda markazlashgan institutlar emas, balki global raqamli kommunikatsiya tarmoqlari orqali amalga oshishini ochib bergan [Castells, 2010, p.98-105]. Kastelsning fikricha, raqamli muhitda ijtimoiy ong ko'p qatlamli, lahzali va doimiy o'zgaruvchan xususiyat kasb etib, mafkuralarning an'anaviy barqaror shakllarining yangilanishiga ta'sir etgan.

Rus falsafiy maktabida mafkura va ijtimoiy ong muammosi madaniy va sivilizatsion rivojlanish nuqtai nazaridan yoritilgan. A. A. Zinovev mafkurani ijtimoiy tizimni saqlab turuvchi va uni qayta ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin qilib, uning ommaviy ongga ta'sirini tanqidiy tahlil qilgan [Zinovev, 2003, p.41-47]. V.S.Styopin esa ijtimoiy ong transformatsiyasini sivilizatsion jarayonlar bilan bog'lab, zamonaviy jamiyatda qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar mafkuraviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekanini asoslagan [Styopin, 2005, p.112-118].

O'zbek olimlari mafkurani milliy mustaqillik, ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilganlar. Masalan siyosatshunos olim S.Otamurodov [Otamurodov, 2008, b.73-79] mafkurani globallashuv jarayonlari bilan bog'likligini, professor M. Q. Quronov mafkurani jamiyatning ma'naviy asosi sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o'rni milliy tarix va madaniy meros bilan bog'lab izohlagan [Quronov, 2010, b.73-79]. A.Erkayevning tadqiqotlarida globallashuv va

axborotlashuv sharoitida mafkuraviy jarayonlarning yangi shakllari tahlil qilingan va raqamli muhitda ijtimoiy ongga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati ochib berilgan [Erkayev, 2018, b.54-60]. Ushbu manbalarning qiyosiy tahlili xorijiy olimlar nigohida mafkura asosan kommunikatsiya va hokimiyat munosabatlari doirasida tahlil qilingan bo'lsa, rus tadqiqotchilar uni sivilizatsion va madaniy o'zgarishlar bilan bog'laganligi, o'zbek olimlari esa mafkurani milliy ma'naviyat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida talqin qilganligidan dalolga beradi, bu yondashuvlar raqamli jamiyat sharoitida mafkura transformatsiyasini kompleks tahlil qilishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan mafkura va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro munosabatni ochib berish uchun turli tarixiy davrlarda shakllangan nazariy konsepsiyalarning mohiyatini mafkura va ijtimoiy ong evolyutsiyasini davrlar kesimida ochib berish, turli falsafiy maktablar qarashlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlash, mafkurani ijtimoiy ong, axborot makoni va raqamli kommunikatsiya vositalari bilan o'zaro bog'liq yaxlit tizim sifatida tahlil qilish raqamli muhitda shakllanayotgan mafkuraviy ma'nolarni talqin qilish uchun tarixiy-falsafiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, germenevtik va tanqidiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mafkura sivilizatsion taraqqiyot jarayonida jamiyatning o'zini anglash, ijtimoiy tartibni asoslash va tarixiy harakat yo'nalishini belgilash vositasi sifatida shakllanib kelgan. Insoniyat tarixi turli sivilizatsion bosqichlar orqali rivojlangani sari mafkuraning mazmuni, shakli va ijtimoiy ongga ta'sir mexanizmlari ham tubdan o'zgarib borgan. Shu ma'noda mafkurani faqat muayyan g'oyalar majmuasi sifatida emas, balki sivilizatsion tuzilmaning ma'naviy-ontologik ifodasi sifatida qarash lozim.

Agrar sivilizatsiya sharoitida mafkura asosan mifologik va diniy dunyoqarashlar orqali namoyon bo'lib, ijtimoiy ong tabiat, kosmos va muqaddas tartib bilan uyg'unlikda shakllangan. Bu bosqichda mafkura insonning jamiyatdagi o'rnini oldindan belgilangan taqdir, an'ana va irsiy tartib doirasida boshqargan. Ijtimoiy ong barqaror, ierarxik va o'zgarishni qabul qilishga moyilligi kam bo'lib, bu jarayonda mafkura asosan vaziyatni boshqaruvchi va legitimlovchi funksiyani bajargan.

Industrial sivilizatsiyaga o'tish bilan mafkuraning mohiyati sifat jihatdan o'zgargan, xususan ishlab chiqarish, mehnat taqsimoti va siyosiy institutlar rivoji mafkurani ratsional, sekulyar va siyosiy xarakterga ega tizimga aylantirgan. Bu davrda mafkura ijtimoiy ongni safarbar etuvchi, sinfiy manfaatlarni ifodalovchi va tarixiy taraqqiyotni "o'zgartiruvchi" sifatida asoslovchi g'oyaviy mexanizm vazifasini bajargan. Mafkura bu davrda muqaddas emas, balki ijtimoiy loyiha sifatida namoyon bo'ldi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, texnologik taraqqiyot va axborot inqilobi sivilizatsion rivojda yangi bosqichni boshlab bergan. Faylasuf olim Elvin Toffler bu jarayonni "uchinchi to'lqin" deb baholab, axborot sivilizatsiyasi

sharoitida barqaror mafkuraviy tizimlar parchalanishini ta'kidlagan [Toffler, E., 1980, p.23]. Uning fikricha, yangi sivilizatsion bosqichda mafkura endi uzoq muddatli va qat'iy tizim emas, balki tez o'zgaruvchi, moslashuvchan va fragmentlashgan ma'nolar majmuasiga aylangan. Bu holat ijtimoiy ongning ham barqarorlikdan dinamika tomon yo'nalganligini namoyon etgan

Postindustrial jamiyat nazariyasida mafkuraning o'rni yanada murakkablashgan. Daniel Bell jamiyatda bilim va axborot ustuvor resursga aylangan sharoitda an'anaviy mafkuralar o'z ta'sirini yo'qotishi mumkinligini asoslagan [Bell, D., 1973, p.166]. Biroq tarixiy tajriba mafkura yo'qolmasligi, balki bilimning o'zi mafkuraviy shakl kasb etishini isbotlagan. Axborotni kim ishlab chiqarayotgani, kim tarqatayotgani va kim nazorat qilishi ijtimoiy ongni shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylangan.

Raqamli sivilizatsiya bosqichida mafkuraning ontologik asoslari yanada o'zgargan. Jan Bodriyyar zamonaviy jamiyatda real voqelik o'rnini belgilar va simulyakrlar egallayotganini ta'kidlab, mafkura endi haqiqatni ifodalash emas, balki uning o'rnini bosish vazifasini bajarayotganini ochib bergan [Bodriyyar, J., 1999, p.36]. Bu jarayon ijtimoiy ongda haqiqat va tasvir o'rtasidagi chegaraning yo'qolishiga olib kelgan va mafkuraviy ta'sirni yanada yashirin va samarali qilgan. Sivilizatsion to'liqlar almashinuvi mafkuraning tarixiy shakllarini o'zgartiribgina qolmay, uning ijtimoiy ongga ta'sir usullarini ham qayta tahrir qilishni talab etmoqda. Agar ilgari mafkura jamiyatni barqarorlashtiruvchi va birlashtiruvchi omil vazifasini bajargan bo'lsa, raqamli sivilizatsiya sharoitida u, raqobatli va fragmentlashgan holatda rivojlanmoqda. Bu esa mafkurani anglashda tarixiy-falsafiy tahlilni, tanqidiy tafakkurni va sivilizatsion yondashuvni birlashtirishni taqozo qiladi.

Postindustrial jamiyat nazariyasi ijtimoiy taraqqiyotning yangi bosqichini mafkuradan bilimga o'tish sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuvga ko'ra, industrial jamiyatga xos bo'lgan siyosiy-ideologik qarama-qarshiliklar o'z ahamiyatini yo'qotib, ijtimoiy ong endilikda ilmiy bilim, ekspert xulosalari va ratsional qarorlar asosida shakllana boshlaydi. Shu ma'noda mafkura ijtimoiy harakatni belgilab beruvchi markaziy kuch sifatida zaiflashadi, uning o'rnini esa texnokratik boshqaruv egallaydi. Bu g'oyani Daniel Bell tizimli ravishda asoslagan, ya'ni u postindustrial jamiyatda bilim ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish asosiy strategik resursga aylanishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bunday jamiyatda mafkura siyosiy kuch sifatida ikkinchi darajaga tushib, ijtimoiy qarorlar ilmiy asoslangan ekspertlik tizimi orqali qabul qilinadi [Bell, D., 1973, p.166]. Bell uchun bu jarayon jamiyatning ratsionallashuvi va nizolarning mafkuraviy emas, funksional yo'l bilan hal etilishiga olib kelishi lozim.

Biroq raqamli jamiyat tajribasi ushbu optimistik prognozni to'liq tasdiqlamaganligi tarixiy jarayonlarda o'z ifodasini topmoqda. Amalda bilim neytral va mafkuradan xoli resurs sifatida emas, balki muayyan manfaatlar, institutlar va texnologiyalar bilan bog'liq holda ishlab chiqarilmoqda va tarqatilmoqda. Axborotni kim nazorat qilishi, qaysi bilim "ishonchli" deb e'tirof etilishi va qaysi ma'lumotlar ommaviy ongga chiqarilishi masalasi yana

mafkuraviy xarakter kasb etmoqda. Shu bois bilimning o‘zi ijtimoiy ongni shakllantiruvchi yangi mafkuraviy mexanizmga aylanmoqda.

Demak, postindustrial va raqamli jamiyat sharoitida bilim mafkuraning o‘rnini to‘liq bosmaydi, balki uning yangi, yashirin va texnik shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Agar industrial jamiyatda mafkura ochiq siyosiy shiorlar orqali amal qilgan bo‘lsa, raqamli davrda u ekspertlik diskursi, algoritmik qarorlar va “obyektiv bilim” niqobi ostida ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu ma’noda Bellning g‘oyalari mafkuraning yo‘qolishi emas, balki uning shakl almashtirishi sifatida qayta talqin qilinishi lozim.

Axborot jamiyati va ayniqsa raqamli sivilizatsiya sharoitida mafkura o‘zining an’anaviy shaklini, ya’ni muayyan g‘oyalar, doktrinalar yoki ochiq shiorlar orqali ta’sir ko‘rsatish xususiyatini bosqichma-bosqich yo‘qotmoqda. Zamonaviy ijtimoiy ongni shakllantirish jarayonida mafkuraviy ta’sir endilikda mazmunning o‘zi orqali emas, balki uni tarqatish, namoyon etish va iste’molga taklif qilish shakli orqali amalga oshmoqda. Bu esa media muhitni oddiy axborot uzatuvchi vosita emas, balki ongni qayta qurishga qodir bo‘lgan mustaqil ijtimoiy-falsafiy makon sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda media muhit inson idroki va tafakkur uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Axborotning qanday tartibda joylashtirilishi, qaysi formatda taklif etilishi, qanday vizual, audiovizual yoki interaktiv elementlar bilan uyg‘unlashtirilishi inson tomonidan voqelikni anglash usulini belgilab beradi. Shu ma’noda, mafkuraviy ta’sir endilikda ongni ishontirish yoki majburlash orqali emas, balki uni ma’lum algoritmlar doirasida harakat qilishga o‘rgatish, diqqatni muayyan nuqtalarga yo‘naltirish va boshqa imkoniyatlarni ko‘rinmas holda soyaga surish orqali amalga oshmoqda. Bu holatni tushunishda Marshall Maklyuen ilgari surgan mashhur “Vosita xabarning o‘zi” tezisi alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Maklyuenga ko‘ra, media vositalar inson idrokining neytral kanallari emas, balki uning sezish, qabul qilish va tafakkur qilish qobiliyatini tubdan o‘zgartiruvchi omillardir. Uning fikricha “Vosita inson tajribasining miqyosi, sur’ati va shaklini belgilab beradi, shu bois uning ta’siri uzatilayotgan mazmundan ham chuqurroqdir” [McLuhan, 1964, p.19]. Bu fikr raqamli jamiyat sharoitida yanada dolzarb tus oladi, chunki bugun algoritmlar, interfeyslar va platformalar inson ongining kundalik ritmini belgilab bermoqda.

Raqamli media muhitda inson ko‘pincha g‘oyaning mazmuniga emas, balki uning qanday taqdim etilganiga javob beradi. Qisqa videolar, vizual simvollar, layk va repost mexanizmi, algoritmik tavsiyalar tizimi inson diqqatini kichik lavhalarga to‘ldiradi, chuqur tahlil o‘rniga tezkor emotsional reaksiyani rivojlantiradi. Shu bois mafkura ochiq da’vat yoki deklaratsiya sifatida emas, balki “tabiiy”, “o‘zi-o‘zidan tushunarli” va shubhasiz qabul qilinadigan media muhit qoidalari orqali singdirilishi avj olmoqda. Bu jarayonda mafkuraviy ta’sir ko‘pincha ong osti darajasida amalga oshadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ham raqamli media muhitning mafkuraviy xususiyatini tan olmoqdalar. Masalan, media va hokimiyat munosabatlarini tahlil qilgan mualliflardan birining fikricha “Algoritmlar nafaqat axborotni saralaydi, balki ijtimoiy ahamiyatli deb hisoblanadigan voqelik chegaralarini ham belgilaydi”

[Couldry, Hepp., 2017, p.34]. Demak, mafkura endilikda muayyan g'oyalar majmui emas, balki qanday bilimlar ko'rinadigan, qaysilari esa ko'rinmas bo'lib qolishini belgilab beruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, media muhitda mafkuraviy ta'sirning yangi mexanizmi bu mazmunni nazorat qilish emas, balki idrokni tashkil etish, diqqat iqtisodiyotini boshqarish va ma'no ishlab chiqarish sharoitlarini belgilashdan iborat. Bu esa mafkurani faqat g'oyaviy tuzilma sifatida emas, balki epistemologik va ontologik jarayon sifatida qayta anglash zarurligini namoyon etadi. Raqamli jamiyatda mafkura insonning nimani o'ylashni emas, balki nimani ko'ra olishi, nimani muhim deb qabul qilish va nimani umuman sezmasdan qoldirishini belgilab beruvchi kuchga aylanmoqda.

Raqamli jamiyat sharoitida mafkura o'zining an'anaviy vazifasi real ijtimoiy voqelikni talqin qilish va uni ma'no jihatdan tartibga solish funksiyasidan tobora uzoqlashmoqda. Agar ilgari tarixiy bosqichlarda mafkura muayyan ijtimoiy voqelikka tayanilgan holda uni baholash, asoslash yoki tanqid qilish vositasi bo'lgan bo'lsa, raqamli muhitda u real voqelikning o'ziga emas, balki uning o'rnini bosuvchi tasvirlar, belgilar va modellarga suyanadi. Bu holat mafkuraning ontologik asoslarida tub o'zgarish sodir bo'layotganidan dalolat beradi.

Simulyatsiya sharoitida voqelik mustaqil ontologik maqomga ega emas, balki media, vizual kontent va raqamli platformalar orqali qayta ishlab chiqarilgan obrazlar orqali qabul qilinadi. Ijtimoiy ong real voqealarni to'g'ridan-to'g'ri idrok etmaydi, balki ularning media orqali yaratilgan versiyalari bilan ish ko'radi. Shu bois mafkura ham real ijtimoiy munosabatlarni emas, balki ularning ramziy ifodalarini tartibga soluvchi mexanizmga aylanmoqda. Bu jarayonda ma'no ishlab chiqarish voqelikdan uzilib, belgilar o'rtasidagi o'yinga aylanmoqda.

Bu ontologik burilishni eng radikal tarzda tahlil qilgan faylasuf Jan Bodriyyar bo'lib, u zamonaviy jamiyatni simulyakrlar hukmronligi sifatida tavsiflagan va reallikning o'rnini uning belgilar tizimi egallaganini ta'kidlagan [Bodriyyar, J., 1999, p.36]. Bodriyyar fikricha, mafkura hozirgi davrda haqiqatni yashirish yoki uni buzib ko'rsatish vazifasini bajarmaydi, chunki hozirgi davrda yashiriladigan haqiqatning o'zi qolmagan. Mafkura haqiqatning yo'qligini yashirishga xizmat qiladi, ya'ni ijtimoiy ong simulyatsiyani reallik sifatida qabul qiladigan holatga kelmoqda. Bu g'oya raqamli jamiyat sharoitida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi davrda feyk yangiliklar, sun'iy intellekt orqali yaratilgan obrazlar, virtual inflyuenserlar va simulyatsiya qilingan ijtimoiy voqealar ijtimoiy ongda real voqelik bilan teng, ba'zan undan ham ishonchliroq qabul qilinmoqda. Natijada mafkuraviy ta'sir ochiq targ'ibot yoki siyosiy shiorlar orqali emas, balki "tabiiy", "betaraf" va "axborotiy" ko'rinishda amalga oshiriladi. Bu esa mafkurani yanada samarali, biroq kam ko'rinadigan ta'sir mexanizmiga aylantiradi.

Ontologik nuqtai nazardan bu holat ijtimoiy ongning voqelik bilan munosabatida jiddiy uzilishni namoyon etadi, chunki inson voqelikni anglash emas, balki uni iste'mol qilish holatiga o'tmoqda. Mafkura esa bu iste'mol

jarayonini boshqaruvchi, qaysi obrazlar muhim, qaysilari ikkinchi darajali ekanini belgilab beruvchi ramziy tizim vazifasini bajarmoqda. Shu nuqtai nazardan mafkura ma'no berish emas, balki ma'no o'rnini bosish funksiyasini bajarmoqda.

Demak, simulyatsiya sharoitida mafkuraning ontologik inqirozi uning yo'qolishi emas, balki uning mutlaqo yangi holatga o'tishi bilan bog'liq. Mafkura reallikka tayanuvchi g'oyalar tizimidan belgilar, tasvirlar va virtual narrativlar orqali ijtimoiy ongni shakllantiruvchi simulyativ mexanizmga aylanmoqda. Bu esa zamonaviy raqamli jamiyatda mafkuraviy jarayonlarni anglash uchun faqat siyosiy yoki ijtimoiy tahlil emas, balki chuqur ontologik-falsafiy yondashuv zarur ekanini ko'rsatadi.

Raqamli jamiyat rivoji bilan ijtimoiy ongni shakllantirishning an'anaviy mexanizmlari o'z ahamiyatini yo'qotib, ularning o'rnini tarmoqli, ko'p markazli va dinamik kommunikatsiya tizimlari egallamoqda. Agar ilgari sivilizatsion bosqichlarda mafkura muayyan davlat, partiya yoki madaniy markaz atrofida jipslashgan yaxlit g'oyaviy tizim sifatida amal qilgan bo'lsa, tarmoqlar jamiyatida u tarqoq, parchalangan va ko'p ma'noli holatga kelmoqda. Bu o'zgarish ijtimoiy ongni barqaror va yagona shaklda emas, balki doimiy ravishda qayta shakllanib turuvchi jarayon sifatida namoyon qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarmoqli kommunikatsiya muhitida shaxs bir vaqtning o'zida turli axborot makonlarida ishtirok etadi, turli ijtimoiy rollar va qadriyatlar tizimlari bilan to'qnash keladi. Natijada ijtimoiy ong yaxlit dunyoqarash emas, balki bir-biriga to'liq mos kelmaydigan ma'nolar, tasavvurlar va identifikatsiya shakllari majmuasi sifatida shakllanadi. Bu holat mafkuraviy ta'sirni ham markazlashgan nazoratdan chiqarib, uni raqobatli va noaniq jarayonga aylantiradi.

Ushbu jarayonni chuqur falsafiy-ijtimoiy jihatdan tahlil qilgan olimlardan biri Manuel Kastels bo'lib, u tarmoq jamiyati nazariyasida shaxsning identifikatsiyasi endi yagona manbaga tayanmasligini, balki turli tarmoqlar, jamoalar va diskurslar ta'sirida shakllanishini ta'kidlagan [Castells, 2010, p.9]. Kastels fikricha, inson bir vaqtning o'zida bir nechta identifikatsiya modellariga ega bo'lib, ularning har biri muayyan vaziyat, makon yoki kommunikatsiya muhitiga bog'liq holda faollashadi. Bu yondashuv ijtimoiy ongning parchalanishini faqat salbiy holat sifatida emas, balki zamonaviy jamiyatning ontologik xususiyati sifatida tushunish imkonini beradi. Ijtimoiy ong endilikda barqaror "men" obraziga emas, balki doimiy ravishda qayta qurilayotgan "menlar majmuasi"ga tayanadi. Mafkura esa ushbu ko'p qatlamli ongni birlashtirishga emas, balki uni muayyan tarmoq doirasida yo'naltirishga qaratilgan lokal mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayon sub'ekt tushunchasining o'zgarishi bilan bog'liq. Zero, klassik falsafada subyekt yaxlit, barqaror va o'z-o'zini anglaydigan mavjudot sifatida qaralgan bo'lsa, tarmoq jamiyatida subyekt tarqoq, muayyan jarayonga bog'liq va diskursiv ta'sirlarga ochiq holatda namoyon bo'ladi. Shu bois, ijtimoiy ong ham umumiy mafkuraviy makon emas, balki turli

tarmoqlarda shakllanuvchi, ba'zan bir-biriga zid ma'nolarni o'z ichiga olgan maydonga aylanadi.

Kastels ta'kidlaganidek, tarmoq jamiyatida mafkuraviy barqarorlikning qiyinlashuvi aynan shu identifikatsiyaning ko'p qatlamligi bilan bog'liq [Castells, 2010, p.11]. Inson ongi bir vaqtning o'zida turli axborot oqimlariga ochiq bo'lgani sababli, u tez ta'sirchan, emotsiyali va o'zgaruvchan tus oladi. Bu holat raqamli jamiyatda mafkuraviy ta'sirning qisqa muddatli, tez almashuvchan va raqobatli bo'lib qolayotganini falsafiy jihatdan asoslab beradi. Shu nuqtai nazardan tarmoq jamiyatida ijtimoiy ong va identifikatsiyaning parchalanishi mafkuraning inqirozi emas, balki uning yangi shaklda namoyon bo'lishi sifatida qaralishi lozim. Uchinchi ming yillikda mafkura jamiyatni to'liq qamrab oluvchi yagona g'oya emas, balki turli tarmoqlar doirasida amal qiluvchi, lokal va vaqtinchalik ma'no tizimlari orqali ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmga aylanmoqda. Bu esa raqamli jamiyatni anglashda mafkurani faqat siyosiy emas, balki chuqur ontologik va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish zarurligini taqozo etadi

XULOSA

Sivilizatsion to'liqlar almashinuvi mafkuraning tarixiy shakllarini o'zgartiribgina qolmay, uning ijtimoiy ongga ta'sir qilish usullarini ham tubdan qayta qurganini ko'rsatadi. Agrar va industrial jamiyatlarda mafkura barqaror, markazlashgan va legitimlovchi funksiyani bajargan bo'lsa, raqamli sivilizatsiya sharoitida u fragmentlashgan, dinamik va ko'p markazli tus olmoqda. Bu esa mafkurani tarixiy jarayondan uzilgan holda emas, balki sivilizatsion rivojning ma'naviy-ontologik ifodasi sifatida tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Postindustrial jamiyat nazariyasi mafkuraning zaiflashuvi haqidagi g'oyani ilgari surgan bo'lsa-da, raqamli jamiyat tajribasi bilimning o'zi ham mafkuraviy shakl kasb etishini ko'rsatdi. Bilim neytral resurs sifatida emas, balki muayyan institutlar, texnologiyalar va manfaatlar bilan bog'liq holda ijtimoiy ongga ta'sir qilmoqda. Shu bois bilim mafkuraning o'rnini bosmaydi, balki uning yashirin, texnik va ekspertlik shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Axborot va media muhit rivoji mafkuraviy ta'sirning mazmundan shaklga ko'chishini namoyon qildi. Raqamli platformalar sharoitida g'oyaning o'zi emas, balki uning tarqatilish usuli, vizual ifodasi va algoritmik qo'llab-quvvatlanishi ijtimoiy ongga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat mafkurani an'anaviy targ'ibot vositasi emas, balki idrok va qabul qilishni boshqaruvchi media-mexanizm sifatida qayta anglashni talab qiladi.

Simulyatsiya sharoitida mafkura real voqelikka tayanuvchi ma'no tizimi bo'lishdan chiqib, belgilar va tasvirlar o'rtasidagi o'yinga aylanmoqda. Ijtimoiy ong real voqelikni emas, balki uning simulyatsiya qilingan obrazlarini qabul qilayotgani mafkuraning ontologik asoslarini zaiflashtirmoqda. Bu jarayon mafkuraning yo'qolishi emas, balki uning simulyativ, yashirin va yanada ta'sirchan shaklga o'tishi ekanini ko'rsatadi.

Tarmoq jamiyati sharoitida ijtimoiy ong va identifikatsiya yaxlit va barqaror shakldan ko'p qatlamli, kontekstga bog'liq holatga o'tmoqda. Shaxs bir vaqtning

o'zida bir nechta identifikatsiya modellari bilan yashar ekan, mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash murakkablashadi. Shu bois, mafkura endilikda jamiyatni to'liq qamrab oluvchi yagona g'oya emas, balki turli tarmoqlarda amal qiluvchi lokal ma'no tizimlari orqali ijtimoiy ongga ta'sir etuvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Манҳейм, К. (1994). Идеология и утопия. – Москва: Республика, – с.56-62.
2. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. – Oxford, Wiley-Blackwell, – p. 98-105.
3. Зиновьев, А. А. (2003). Запад. Феномен западнизма. – Москва: Центрполиграф, – с. 41-47.
4. Стёпин, В. С. (2005). Философия и цивилизационное развитие. – Москва: Гардарики, – с.112–118
5. Отамуродов, С (2008). Глобаллашув ва миллат. – Тошкент: Ўзбекистон, – б.7
6. Қуроноф, М. Қ. (2010). Миллий мафкура ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, –б.79.
7. Эркаев, А. (2018). Глобаллашув шароитида мафкурaviй жараёнлар. – Тошкент: Маънавият, – б. 54.
8. Тоффлер Э. (1980). Третья волна. – Нью-Йорк, Bantam Books, с.20–45.
9. Белл Д. (1973). The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – Нью-Йорк, Basic Books, p. 160–190.
10. McLuhan M. (1964). Understanding Media: The Extensions of Man. – Нью-Йорк, McGraw-Hill, – p.15–35.
11. Бодрийяр Ж. (1999). Симулякры и симуляция. – Москва: Постум, с.30–55.
12. Кастельс М. (2010). The Rise of the Network Society. – Оксфорд, Wiley-Blackwell, – p. 1–25.
13. Фуко М. (1996). Воля к истине. – Москва: Магистериум, с.50-70.
14. Хабермас Ю. (2001). Моральное сознание и коммуникативное действие. – Москва: Наука, – с. 80–100.
15. Бауман З. (2008). Текущая современность. – Санкт-Петербург: Питер, с.10–30.
16. McLuhan, M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964.
17. Couldry, N., Hepp, A. The Mediated Construction of Reality. – Cambridge: Polity Press, 2017.
18. Castells M. (2010). The Rise of the Network Society. – Oxford, Wiley-Blackwell, p.1–25.
19. Castells M. (2012). Networks of Outrage and Hope: Social Movements in the Internet Age. Cambridge, Polity Press, p.5–30.

20. Бауман З. (2008). Текущая современность. – Санкт-Петербург: Питер, с.10-35.
21. Debord G. (1995). The Society of the Spectacle. – New York, Zone Books, p. 20-40.
22. Фукоальд М. (1996). Воля к истине. – Москва: Магистериум, с. 50–75.

Инаков Кудратжон Кадиржанович

доктор философии (PhD)

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Трансформация идеологии и динамика общественного сознания в условиях цифрового общества

(Ташкент, Узбекистан)

**ТРАНСФОРМАЦИЯ ИДЕОЛОГИИ И ДИНАМИКА
ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО
ОБЩЕСТВА**

Аннотация. В условиях цифрового общества механизмы формирования общественного сознания претерпевают глубокие изменения, а создание, распространение и восприятие идеологий осуществляется в новой коммуникационной среде. Скорость информационных потоков, доминирование визуального контента и алгоритмическое управление формируют новые формы идеологического воздействия. Эти процессы непосредственно влияют на мировоззрение личности, систему ценностей и социальную идентичность. В связи с этим в данной статье анализируются различия между традиционными и цифровыми формами идеологии обосновывается значение критического мышления в осмыслении цифровых идеологических процессов.

Ключевые слова: цифровое общество, трансформация идеологии, общественное сознание, информационное пространство, цифровая коммуникация, критическое мышление

Inaqov Qudratjon Qadirjanovich

Doctor of Philosophy (PhD)

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

(Tashkent, Uzbekistan)

**TRANSFORMATION OF IDEOLOGY AND DYNAMICS OF SOCIAL
CONSCIOUSNESS IN THE CONTEXT OF DIGITAL SOCIETY**

Abstract. In the context of digital society, the mechanisms of forming social consciousness are undergoing profound changes, while the creation, dissemination, and perception of ideologies take place within a new communicative environment. The speed of information flows, the dominance of visual content, and algorithmic governance generate new forms of ideological influence. These processes directly affect individual worldview, value systems, and social identity. Therefore, this

article analyzes the differences between traditional and digital forms of ideology. Therefore, this article substantiates the importance of critical thinking in understanding digital ideological processes.

Keywords: digital society, ideology transformation, social consciousness, information space, digital communication, critical thinking

